

ZAMONAVIY TURK ADABIYOTIDAGI ASARLARNING G'OYAVIY BADIY TAHLILI VA AHAMIYATI

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Markaziy Osiyo xalqlari va madaniyatlari inistituti

*3-bosqich turk tili yo'nalish talabasi **Saparov Rahmon***

*Ilmiy rahbar: **Emrah Yilmaz Çağdaş***

Türk Lehçeleri Doktor Dotsent

Anatatsiya

Turk adabiyoti dunyo adabiyotida muhim ahamiyatga ega, ushbu adabiyotlar dunyo bo'ylab ko'plab tillarga tarjima qilinmoqda. Chunki butun dunyodagi kitobxonlar o'zining serqirraligi, asarda ishlatilgan badiiy uslublar, voqealar rivojining aniq va tushunarli shakilda bayon etilishi o'quvchini o'ziga jalb qilmasdan qolmaydi. Bundan tashqari, turk adabiyotining shakillanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ushbu jarayon o'z ichiga turli xil davrlarga bo'linadi. Xususan, ilk davr, o'rta davr va zamonaviy davr. Yuqorida sanab o'tilgan davrlarning har biri alohida alohida o'rganiladi va tahlil qilinadi. Bu maqolada esa turk adabiyotining zamonaviy, ya'ni bugungi kunda yozilgan badiiy adabiyotlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Turk adabiyoti, Ahmat Lutfi Qozonchi, Aziz Nesin, Rashot Nuri Guntekin, Orhun Pamuk, Fotih Duman, "Choliqushi", "Men", "G'aroyib bolalar", "Saodat asri qissalari".

Kirish. Adabiyot millatlarni birlashtiruvchi vosita hisoblanadi. Shu sababli har bir millat jahon miqyosidagi yaratilgan adabiyot namunalarini tarjima va tahlil qilish orqali ijobiy jihatlarini o'zida mujassamlashtirishiga intiladi. Bunda mushtarak adabiyotlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Tili, dini va madaniyati bir bo'lgan bir nechta millatlarda yaratilgan adabiyotlar kitobxonlar qalbiga tezroq yetib boradi. Shu nuqtai nazardan turk yozuvchilari tomonidan yaratilgan asarlar ham azaldan o'zbek kitoblari orasida iliq kutib olinadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Turk adabiyoti dunyo adabiyotida yetakchi o'rinlardan birida turadi. Bunga sabab turk yozuvchilarining kitoblari millionlab nusxalarda chop etilishi va xalqaro mukofotlarga sazovor bo'lishi hisoblanadi. Turk adabiyotining tarixi uzoq o'tmishga borib taqalsa-da, ularning asarlarning tarjima qilish ishlari o'tgan asrdan boshlangan. Bunga sabab sifatida, birinchidan, avvallari o'zbek va turk tilida qalam tebratgan ijodkorlar umumturk tilida o'z asarlarini yozgan bo'lib bu ikki xalq tushunishiga to'siq bo'lmagan. Ikkinchidan turk tilida yozilgan asarlar tarjimasiga e'tibor aynan XX arda kuchaygan. O'tgan asrda turk yozuvchilari tomonidan yaratilgan asarlar dunyo miqyosida e'tirof erildi va

mashxur asarlardan Rashot Nuri Guntekinning “Choliqushi”, “Otash kechasi”, Aziz Nesinning “G‘aroyib bolalar”, “Fudbol qiroli” kabi asarlari o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Bugungi kunga kelib turk adabiyotida ramziy ma’noda ikki yo‘nalishga bo‘linish yuzaga keldi. Ular quyidagilar:

1. An’anaviy adabiy asarlar. Bunda yozuvchilar turkiyada davom etib kelayotgan yozuvchilik an’anasini davom ettirgan holda, qadryatlar asosiga qurilgan asarlar

2. Zamonaviy adabiy asarlar. Bu esa keng ommaning fikri va talabidan kelib chiqqan yuzaki va ma’lum bir davrdagina o‘qiladigan asarlar.

Zamonaviy turk adabiyotini kuzatadigan bo‘lsak, kompozitsion asarlardan ko‘ra fikrlar asosiga qurilgan asarlar ko‘paymoqda. Bu albatta yozuvchiga ham o‘quvchiga ham yengillik tug‘diradi. Biroq asar umrining qisqa bo‘lishiga olib keladi. Qolaversa, bugungi kunda turk xalqi yaratilgan badiiy asarlarni tanlash va saralashga alohida ziyraklik bilan yondashmoqda. Chunki har bir o‘qilgan asar inson umrining ma’lum qismini talab etadi. tog‘ri asar tanlash esa vaqtni tog‘ri sarflashga hizmat qiladi. Shu sababli yuqori qatlam vakillari ko‘proq qadryatlarga asoslangan, adabiy an’analarga mos keladigan asarlarni tanlashmoqda. Bu asarlardan ommalashganlari o‘zbek tiliga hamm tarjima qilingan bo‘lib ularga Ahmad Lutfi Qozonchi “Saodat asri qissalari”, Elif Shafaq “Ishqqa oid qirq qoida” Sabohiddin Ali “Ichimizdagi shayton”, “Mo‘yna mantolli madonna”, O‘rxon Kamol “Dengiz ortidagi ayol”, Rashot Nuri Guntekin “Muhabbat simfoniyasi”, Orxan Pamuk “Mening otim qirmizi”, Fotih Duman “Men”, Omina Shenliko‘g‘li “Imomning maniken qizi” kiradi.

Ushbu keltirilgan badiiy asarlar o‘z davrida nafaqat Turkiya, balki, butun dunyoda o‘ziga yarasha kitobxonlar auditoriyasiga ega bo‘lgan kitoblar sirasiga kiradi. Xususan, Ahmad Lutfi Qozonchi 1936 yilda Turkiyaning Chorum shaxrida dunyoga kelgan. Uning butun islom dunyosiga mashxur qilgan asari “Saodat asri qissalari” bo‘lib, payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v)ning hayot yo‘liga bag‘ishlanadi. Asarda garchi badiiy to‘qimalar mavjud bo‘lsada, muallif tarixiy faktlarga tayangan holatda ushbu asarni yozgani uchun barcha musulmon davlatlarining sevimli kitoblaridan biri bo‘ldi.

Turk adabiyotining rivojiga asli kelib chiqishi fransuz bo‘lgan Elif Shafaq ham munosib hissa qo‘shgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Taqdir taqazosi bilan Turkiyaga kelib qolgan yozuvchining “Ishqqa oid qirq qoida” asari dunyo miqyosida sevib o‘qiladigan asarlar qatoriga kirdi. Bunga sabab asar Mavlono Jaloliddin Rumiy va ustoz Shams Tabriziy hayot yo‘li, o‘zaro baxs-munozaralari asosida bugungi kunda yashayotgan insonlar hayotiga ta’sini yoritib berishga qaratilgan kitob hisoblanadi. O‘tmish va bugungi kunni maxorat bilan uyg‘unlashtirish yozuvchidan katta mahorat talab etadi.

O'tgan asr tur adabiyotining yetakchi vakillaridan biri bo'lgan Sabohiddin Ali o'zining bir qator asarlari bilan kitobxonlar diqqatini o'ziga jalb qila oldi. Uning "Ichimizdagi shayton", "Mo'yna mantolli madonna" kabi asarlari o'zbek tiliga tarjima qilingach keng kitobxonlar ommasi tomonidan ijobiy kutib olindi. Bunga birgina misol Mo'yna mantolli madonna" asari qaxramoni Rauf afandining boshidan o'tkazgan voqealar va asar so'nggida o'z sevganiga erisha olmagan o'zbek adabiyotidagi Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asari darajasiga tenglashtirildi. Shu sababli ham Sabohiddin Alining asar qaxramonlari o'zbek kitobxonlari orasida ancha ijobiy taassurot qoldirdi.

Ijtimoiy-maishiy mavzularda qalam tebratadigan yozuvchi O'rxon Kamolning o'zbek tiliga "72", "Firibgar", "Dengiz ortidagi ayol" kabi bir qator asarlari tarjima qilingan. Ular orasida "Dengi ortidagi ayol" asari ahamiyatga molik asar hisoblanadi. Chunki asarda bir ma'suma kelin Nozanning Mazharbey bilan shirin turmushi qaynonasi sabab buzilib ketishi va og'ir qismatga duchor bo'lishi ishonarli tasvirlangan. shu jihatlari sabab asar o'zbek tilida nashr etilgandan so'ng qizg'in baxs-munozaralarga sabab bo'ldi.

Zamonaviy turk adabiyotini dunyoga tanitishga katta hissa qo'shgan adiblardan biri Rashot Nuri Guntekinning "Muhabbat sinfoniyasi" asari so'nggi yillarda tarjima qilinishiga qaramay tezda shuxrat qozondi. Garchi asarda oqlash bilan bir qatorda qoralaydigan qaxramonlar bo'lishiga qaramay, kitobda ilgari surilgan teran ma'no va dolzarb muammolar sabab kitoblarning mehrini qozondi. Shu bilan buir qatorda turkiyalik ijodkorlar tomonidan ushbu asar asosida ko'p qismli serial ishlangani Guntekinning boshqa asarlari qatori bu romanni ham mashxur bo'lishini ta'minladi.

Xalqaro Nobel mukofoti lauriyati O'rxon Pamukning "Mening otim qirmizi" romani o'zining yozilish uslubi bilan diqqatga sazovor. Asar tarixiyli bilan ham ahamiyatlidir. Chunki XV asrda hukm surgan Usmoniylar imperiyasi hukmdori Murod III davrida faoliyat yuritgan miniaturachi rassomlarning bir-biriga bog'liq hayotini yoritish orqali butun Turkiyaning o'sha paytlardagi ijtimoiy hayotini aks ettirishga harakat qilingan. O'rxon Pamukning ushbu asari hajman katta bo'lishiga qaramay nafaqat dedektiv janri ixlosmandlari, balki ko'p sonli kitobxonlarni e'tiborini o'ziga qarata olgan kitob hisoblanadi.

Turkiya adabiyotida favqulotda kirib kelgan istedod egasi deya tarflanadigan yozuvchi Fotih Duman 1987-yil Sivas shahrida tug'ilgan bo'lib, o'zining bir qator asarlari bilan adabiyot markazida shaxs turishi kerakligini ispodlashga urindi. Uning ilk va mashxur "Men" kitobida inson o'z nafsiga qarshi kurashish kerakligi, uni yengsagina komillik darajasiga erishish mumkinligini ta'kidlab o'tadi. Asarda qozi Aziz Mahmud Xudoiy haqida bo'lib, uning qozilik mansabidan ketib o'z nafs bilan kurashi bayon etiladi. Bu realistik uslibga yaqin kitob bo'lgani uchun ham o'zbek kitobxonlari tomonidan o'qilishi kerak bo'lgan kitoblar ro'yxatiga kiritildi.

Ayollarning qalb kechinmalari, ularning his-tuyg‘ulari o‘y fikrlarini ishonarli tasvirlashda turk adibasi Omina Shenliko‘g‘li yetakchi o‘rinda turadi. uning “Imomning maniken qizi”, “Mariya”, “Men kimning qurboniman”, “Mingboshining qizi” kabi romanlarida ruhiy iztiroblarni boshdan kechirgan ayollarning taqdiriga bag‘ishlanadi. Ular ichida “Imomning maniken qizi” romani ahloqiy qadriyatlar, odob-ahloq va rivojlanga dunyoda qizlar qanday bo‘lishi kerakligi haqida yoritilgan asar hisoblanadi. endi voyaga yetayotgan qizlarning tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etgani uchun ham bu asar tez orada kitobxonlar orasida sevib o‘qiladigan asarlar sirasiga kirdi.

Yuqoridagi asarlarda diniy va milliy qadriyatlarning ustun bo‘lishi, har qanday rivojlanish sharoitida ham inson o‘zini va o‘zligini yo‘qotmaslik kerak ekani aks etgani uchun ham Turkiyaliklarning katta qismi aynan shunga o‘xshash asarlarni o‘qishga qiziqish bildirmoqda. Bu asarlar bizning xalqimiz ma’naviy – ruhiy olami bilan mushtarakligi uchun e’tirof etilmoqda. Biroq bu kabi asarlar bilan bir qatorda yoshlar orasida ommalashgan va faqat so‘z, fikrlar jamlanmasidan iborat bo‘lgan asarlar ham mavjud bo‘lib, ular asosan kitobning jimjimador nomi bilan kitobxonlarni o‘ziga jalb qilmoqda. Ularning ayrimlari Mirach Chag‘ri Oqtosh “To‘siqlarga qaramay sevdik”, Ezgin Qilich “Menga baxtni ko‘rsat”, Halis Karabenli “Bazilar olisdan sevarlar”, Ahmed O‘zbay “Ishqparast”, Songul Unsal “Kaktuslar ham gullaydi”, Erdog‘an yildirim “Barchasi senga atalgan”, Zeus Kabadayi “Meni yolg‘iz qoldirma”, Ahmed Batman “Meni kuchliroq sev” hisoblanadi.

Turkiyalik adabiyotshunoslardan biri hisoblangan Ayshegul Sekman ta’kidlaganidek “Ayni zamonda kitob mutoola qiluvchilar keng syujetli kitoblardan ko‘ra qisqa fikrga asoslangan asarlarni ko‘proq tanlashmoqda. Bu esa kitob didini o‘tmaslashtirib qo‘ymoqda”. Darxaqiqat, turkiyalik adabiy jamoatchilik tomonidan ishlatiladigan “sariq adabiyot”, “Ko‘cha adabiyoti” kabi iboralar o‘zbek adabiyotiga ham kirib kelmoqda. Bu kitoblarning yaxshi tomoni shundaki, asosan voqea, syujet orqali ifodalamoqchi bo‘lgan fikr qisqa fikr orqali bayon qilinadi. Bu o‘quvchining vaqtini tejashga olib keladi. Shu bilan bir qatorda kitob ichidagi falsafiy ahamiyatga ega gaplar mushohada qilishga chorlaydi. Biroq bu kitobxon uchun vaqtinchalik berilgan uyqu dori kabi ta’sir qiladi. Vaqtlar o‘tishi bilan bunday kitoblarni qayta o‘qishga ehtiyoj sezilmaydi. Qolaversa yozuvchi ilgari surgan g‘oya, aytmoqchi bo‘lgan fikr syujet libosiga o‘ralmasa, suv dori ichishga o‘xshab qoladi. Dori ichish jarayonida suv qanchalik muhim bo‘lsa, asarni o‘qiganda fikrni tafakkurga jo qilish uchun syujet shu qadar muhim sanaladi. Turk adabiyotida so‘nggi yillarda yaratilgan bu asarlarning nomi va ichidagi mazmuniga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, asosan sevgi-muhabbat visol, hijron, ayriliq kabi tushunchalar ta’rifiga bag‘ishlanganini ko‘ruishimiz mumkin. Bunday hassos jumlar yoshlarni o‘ziga jalb qiladi. Bu asarlar shq- muhabbatga qiziquvchi yoshlar tomonidan ishtiyoq bilan o‘qilmoqda. Bu esa

yuqorida aytilgan toifadagi kitoblarning ommalashishiga hizmat qilsa, kitobxonlarning badiiy didini o'sishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, har bir asar bir olam. Shunday ekan har bir asar o'quvchining estetik badiiy tafakkurini shakllanishiga hizmat qilishi zarur. Agar asarni o'qigan kitobxon undan ma'naviy ozuqa olmas ekan, ham yozuvchining ham o'quvchining qimmatli vaqti bekor ketgan hisoblanadi. Qolaversa, turk adabiyoti faqatgina badiiy to'qimalardan iborat bo'lib qolmay, butun turkiy xalqlarning shakllanishi, madaniyati, urf-odatlarini hamda an-analarini o'zida jamlagan bebaho xazinadir. Ushbu qiymatli qo'lyozmalarni, adabiyotlarni o'rganib, tahlil qilish va uni keng ommaga taqdim etish har birimizning vazifamiz hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. . Ahmad Lutfi Qozonchi. Saodat asri qissalari. Toshkent: Munir nashriyoti - 2021 y
2. Elif Shafaq. Ishqqa oid qirq qoida. Toshkent: Mashxur press nashriyoti -2019-yil
3. Sabohiddin Ali. Ichimizdagi shayton, Mo'yna mantolli Madonna. Toshkent: Yangi asr avlodi nashryoti- 2022-yil
4. O'rxon Kamol. Dengiz ortidagi ayol. Toshkent: Yangi asr avlodi nashryoti- 2021-yil
5. Rashot Nuri Guntekin. Muhabbat simfoniyasi. Toshkent:- G'afur Gulom nashriyoti -2011
6. Orxan Pamuk. Mening otim qirmizi. Toshkent: Yangi asr avlodi nashryoti- 2025-yil
7. Fotih Duman. Men. Toshkent: Nasim kutub nashriyoti- 2024
8. Omina Shenliko'g'li. Imomning maniken qizi. Toshkent: Azon kitoblari nashriyoti-2021-y